

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 25-26 (67294-95)
2020-yil 13-iyul

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

BUVIJONIM BILAN ZERIKMAYMIZ



Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 14-umumta'lim maktabi o'quvchilari Akbarali Abduhakimov va Abduboriy Yo'ldoshev ta'tilni Tursunoy buviyonlari bilan birgalikda maroqli o'tkazmoqdalar. Ikki tengdoshingiz ta'til mazmunli o'tishi uchun mutolaaga oshno tutinganlar. Ayni kunlarda «Garri Potter va maxfiy hujra» yosh do'stlarimizning sevimli kitobiga aylanib ulgurgan.

USHBU SONDA:

Bir kuni
darsda...

3-bet

FAQAT
QIZLAR
O'QISIN!

11-bet

OROLNI
QO'MSAGAN
KEMALAR
(Ertak)

15-bet

ONA TILIM – G'URURIM

O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkur ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy, ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi.

ulug'. Til millat qiyofasining bir bo'lagi. Dunyodagi barcha xalqlar o'zining suygan ona tiliga ega. Bu olamshumul hodisaning tub mohiyatini kelajak avlod ongiga singdirish, unga muhabbati, sadoqatini yanada mustahkamlash shu til jonkuyarlari, o'qituvchilar, tilshunolar, umuman, o'zini shu millat vakili deb bilgan har bir insonning har kunlik burchi bo'lishi shart! Shundagina o'sib kelayotgan yosh avlod tilni nega milliy g'ururga qiyoslanishini his etadigan, turli ma'naviy, mafkuraviy tahdidlar ta'siriga tushmaydigan bo'lib ulg'ayadi. Mana, 31 yildirki, 21-oktyabr yurtimizda o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun sifatida keng nishonlanadi. «Davlat tili haqida»gi qonunning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha tahlil etilib, galdagi vazifalar belgilab olinishi

yaxshi an'anaga aylangan. Xususan, Muhtaram Prezidentimiz tomonidan joriy yilning 10-aprel kuni 21-oktyabr sanasini «O'zbek tili bayrami kuni» deb belgilash to'g'risidagi tashabbusi bilan «O'zbek tili bayrami kuni»ni belgilash to'g'risidagi Qonunning qabul qilinishi mamlakatimiz, yurtodoshlarimiz hayotidagi unutilmas tarixiy voqeaga aylandi.

O'zbek tili ham boshqa tillar kabi o'zga tillar bilan chatishdi, aralashdi. Bu chatishuv va aralashuv o'zbek tili taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. Binobarin, biz Navoiy asarlarida arab, fors, tojik, uyg'ur va boshqa tillarga taalluqli so'zlarni uchratamiz. Til ijtimoiy hodisadir. Til insonni hayvondan ajratuvchi «gavhari sharif»dir. Til tafakkurning ifoda qurolidir. Kishining ko'ngli (fikri) daryodir, so'z esa dur, so'zlovchi g'avvosdir. Dur turli xilda bo'lgani kabi so'z

ham har xil bo'ladi. Yaxshi so'z kishiga jon baxsh etadi. Yomon so'z kishini halok etishgacha olib boradi. Til ma'rifat va adabiyot quroli hamdir. So'z so'zlashdan maqsad ma'no ifodalashdir.

Bugun XXI asr yoshlari ona tilini qay darajada o'zlashtirayotganligi, ona tilidan qanday foydalana-yotganliklari, yozma va og'zaki nutqda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymasligi ularning o'rganishlariga, kitobxonligiga bog'liq. Taniqli yozuvchi Abdulla Qahhor «Nega yo'l qoidasini buzgan yo'lovchiga jarima solinadi-yu, tilni buzgan insonga jarima solinmaydi?» degan fikrni aytgan edi. Tilimizni e'zozlash, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalashda buyuk ajdodlarimizning hayoti va faoliyati katta ibrat maktabidir. Til millatimiz faxri, g'ururi. Ayni chog'da orzu umidlarimiz, Istiqbolimiz unda bo'y ko'rsatadigan qalbimiz oynasi hamdir. Ona tiliga doim hurmat va e'tiborda bo'lib, uning jamiyatimizdagi mavqeini yuksaltirishga har birimiz o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Zero, til bor ekan, millatimiz barhayot, uning istiqboli nurli va charog'bondir.



Mahbubaxon ABIDOVA,
Andijon viloyati, Xo'jaobod
tumanidagi xalq ta'limi
bo'limining rus tili va adabiyoti
fani uslubchisi

Ona tili millatning ruhidir.

Darhaqiqat, kalom, lutf, lafz, kalima kabi atamalar bilan ifodalanadigan so'zning qudrati

YUTUQLARIMGA BOBOM SABABCHI, —

deydi «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni sohibi Javohir Sindarov

O'zining bilimi, aql-u zakovati, turli sohalaridagi yutuqlari bilan nafaqat mamlakatimizda, balki jahonda o'zlarini namoyish qilishga erishayotgan o'quvchi-yoshlar orasida poytaxtimizning 300-DIUM 9-sinf o'quvchisi, yosh grossmeyster Javohir Sindarov ham bor.

Yosh iqtidor egasi Yoshlar kuni arafasida «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni sohibi bo'ldi. Yangi O'zbekistonni, ertangi kunini yanada muvaffa-

qiyatlar bilan to'ldirishga intilayotgan Javohir kabi yoshlar bilan har qancha faxrlansak arziydi.


— Men musobaqada bunday darajaga erisha-

man, deb o'ylamagandim. Juda hayajonga tushdim. Buni tasvirlab ham berolmayman. Ayniqsa, Prezidentimizning tabrigi meni yanada ruhlantirib

yubordi. Bunday natijalarga erishishimda Komil bobomning hissasi katta. Chunki ular meni dastlab shaxmat klubiga olib borganlar. Grossmeyster bo'lib qaytganimda, aeroportda kutib olgani chiqqan sinf rahbarimiz Nargiza opa va sinfdosh-

larimdan cheksiz minnatdorman. Quvonchimga sherik bo'lganlari meni yanada hayajonlantirdi.

Orzum — jahon shaxmat tojini O'zbekistonga olib kelish, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlardan yanada unumli foydalanish.



MATEMATIKA FANI JON-U DILIM

Sherzodbek Abdualiyev — Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 3-«B» sinf o'quvchisi. U aniq fanlarga qiziqadi. Yozgi ta'tilda ham Sherzodbek o'z bilimini oshirish maqsadida ustoz Maqsudaxon Rasulova boshchiligidagi matematika fanidan onlayn-mashg'ulotlarda muntazam ishtirok etmoqda.

Aziz ustozlar, o'quvchilar! Siz ham bizga yozib yuboring. «Bir kuni darsda...» nima bo'lgandi?



Yaqin insoni tilidan yozib oldi Mahbuba BEKMURODOVA, Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi 6-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Hayotimda noxush iz qoldirgan bir soat dars...

Bundan ancha yillar muqaddam men 3-sinf o'quvchisi edim. Mittigina qora ko'zli qizaloq dars boshlanishini kutib, sinfda dugonam bilan o'tirgandik. Shu payt sinfga ustoz jahl bilan kirib keldi va eshik oldida turgan dugonamga qarab: – Joyingga o'tir, – dedi. – Sen esa bu yoqqa kel, – deya shunaqangi shapaloq tushirdiki, boshim bilan doskaga urildim, yana, yana ... qulog'mdan qon oqa boshladi. Egnimdagi formam va oppoq fartugim qonga belandi.

Hamma dahshatda qotib turardi. Men esa nima uchun kaltak yeyayotganimni ham bilmasdan yig'lardim. Ustozjon, bo'ldi... Ustozni qo'llari og'ridi shekilli, qo'llarini uqalab chetga o'tdi... Butun tanam zirqirab og'rirdi. Qon to'xtamaganini ko'rib, ustoz: «Mana, bir soat darsim seni tarbiyalash bilan o'tdi... Ovozning chiqmasin!»

Ota-onam ham shu maktabda o'qituvchi, onam rahbarlardan biri edi. Keyin bilsam, onam rahbar sifatida ustozimga tanbeh bergan ekan. U esa alamini mendan olibdi... Shu kundan boshlab eshitish qobiliyatim pasaya boshladi. A'lochi qiz edim, o'rtaacha o'zlashtiradiganlar qatoriga tushib qoldim. Ota-onamning meni ko'rsatmagan shifokori-yu davlati qolmadi, natija bo'lmadi. Qulog'imning pardasi yirtilib ketibdi. Ustozim uzr so'radi, lekin bundan nima naf? Aka-opalarim oliy ma'lumotli, lekin men kamchiligimdan uyaliib, o'qishga topshirmadim. Tikuvchilik, hamshiralik kurslarida o'qidim, ishladim. Oilaliman, 2 nafar o'g'lim bor. Oliy ma'lumotli bo'lib, ota-onam kasbini egallash menga armon bo'lib qoldi. Afsuski, oramizda shundaylar ham bor...

Bu voqeani ibratli, desa ham bo'ladi. Biz bir partada bir o'g'il bola, bir qiz bola o'tirardik. Sinf rahbarimiz a'lochi o'quvchilar bilan past bahoga o'qiydiganlarni yonma-yon o'tirgizar edi. Shunday kunlarning birida ingliz tili xonasiga bordik, dars boshlandi. Odatdagidek uy vazifalar so'ralla boshlandi. Shunda Mashhuraning yonida o'tiradigan eng o'zlashtirishi yomon bo'lgan sinfdoshimiz Aziz uy vazifasini birinchi bo'lib o'qishga izn so'radi. Uy vazifasi «About myself» qisqacha qilib o'zimiz haqimizda yozish edi. Biz hayron qoldik. U vazifani o'qishni boshladi.

«I am pupil. I am 9. I like english, math and others. I am excellent girl. I like red dresses and red shoes. I like going to dancing» (Men o'quvchiman. 9 yoshdaman. Ingliz tili, matematikani yaxshi ko'raman. Qizil ko'ylak va qizil tuflini yoqtiraman. Men raqs to'garagiga borishni yoqtiraman). Sizga tushunarli bo'lishi uchun tarjima qilib jo'natyapman. Shu vaqt butun sinf kulib yubordik. Chunki u vazifani yonidagi sinfdoshimizdan ko'chirgan edi. U juda ham xijolat bo'ldi, chunki o'zi o'qiganlarini o'zi tushunmagandi. Bu bir tomondan juda kulgili, bir tomondan esa o'rnak bo'ladigan ish bo'lgandi. Shunda ustozimiz Azizni noqulay vaziyatdan chiqarish uchun, daftarlaring almashib qolgan shekilli, o'zingni daftaringni topgach, qayta o'qiysan, dedi. Ammo biz bu voqeadan to'g'ri xulosa chiqargan edik.

Diyora LAPASOVA,

Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumanidagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Ruxshona SALOMOVA, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi 37-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

Rahbarlik qiladigan sinfmda juda aqlli va harakatchan bolalar jamlangan.

O'quvchilarim ustidan ba'zida shikoyatlar ham eshitib qolaman. Lekin men uchun ular juda qadrlı. Hech qattiq gapirgim kelmaydi. Sinfimizdagi shoira qizimiz Shohista undan orqa partada o'tiradigan polvon bola – Jasurbekdan shikoyat qilib qoldi:

– Ustoz, Jasur tinmay partani ostidan oyog'ini cho'zib o'tiradi. Oyog'lari sumkamga tegyapti. Ayting, partada tog'ri o'tirsın, – dedi. Men tushuntirishning o'zgacha usulini topdim:

– Shohista, Jasur juda yaxshi bola. Sen sumkangga uyga borganda yaxshilab tushuntirib qo'y, Jasurning oyog'iga hadeb tegib ketavermasin. Ana, Mashhuraning sumkasidan o'rgansin, uning ortida o'tiradigan Sardorning oyog'iga hecham tegmaydi. To'g'ri o'tir, deb uqtirib qo'ygin. Men sendan kechsam kechaman, lekin sinfdoshimdan kechmayman, deb yaxshilab gaplashib qo'ygin sumkang bilan, xo'pmi? Sinfimizdagi polvonimiz Jasurning oyog'larini asrashimiz kerak, – dedim. Jasur bu gaplardan o'ziga yetarlicha xulosa chiqardi. Yosh bo'lishsa-da, o'quvchilarim ilmoqli so'zlarim ma'nosini juda yaxshi anglab yetishgan edilar...

Bir kuni darsda...

Yoshim 12 da. Men ham maktabimda va hayotimda bo'lgan bir voqeani yozgim keldi.

Bir kuni ustozim menga dadam maktabga izlab kelganini, tashqarida kutib turganini, tezda uning yoniga borishimni aytdi. Men shunday xursand bo'ldimki, umrimda hech qachon bunday sevinmagandim. Hovliga chiqib dadamni izladim, topolmadim, ko'chaga ham chiqdim, yo'q edi dadam. Xonaga qaytib kirib, dadamni topolmaganimni aytdim. Shunda ustozim yanglishganini, boshqa sinfdagi bolaning otasi kelganligini aytdi. O'shanda 2-sinfda o'qirdim, partaga boshimni qo'yib, rosa yig'lagandim. Chunki dadam bizni tashlab ketgan edi. Dadamni ko'rish, unga sog'inganimni aytish, oilamiz qiyranib qolganini, dadamning o'sha paytlarda onam betob bo'lgani uchun bizni tashlab ketganidan xafa ekanligimni aytgim keldi.

Xullas, dadamga aytar gaplarim ko'p edi. Lekin u bizni sog'inmasdi, sog'inganida kelar edi o'sha paytlar. Keyinroq bilsak, biz orziqib kutayotgan paytlarimiz dadam boshqa oila qurib ketgan ekan...

Izzatillo MA'RUFJONOV,


Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahridagi 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi

BIZGA «TONG YULDUZI» QADRLI!

Bugungi kunda mamlakatimiz hayotida juda katta o'zgarishlar yuz bermoqda, har sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini aholi orasida keng targ'ib qilish, bu boradagi yangiliklar, yangilanishlarni tezkorlik, ochiqlik, shaffoflik bilan ta'sirchan shaklda televideniye, radio, bosma nashrlar va internet saytlari orqali ommaga yetkazish borasida samarali mehnat qilishyapti. Ular yetkazayotgan xabar va ma'lumotlar asosida qayerda qanday o'zgarish yoki voqelik sodir bo'lsa, darrov bilib o'laymiz, o'z munosabatimizni bildiraymiz. Biz globallashuv

zamonida, texnika va texnologiyalar asrida yashayapmiz. Har qanday ma'lumotni elektron tarzda olishimiz mumkin. Shunday bo'lsa-da, bosma nashrlarning o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Chunki bosma nashrlar yillar davomida saqlanib qoladigan qimmatli manba hisoblanadi. Jumladan, sevimli nashrimiz «Tong yulduzi»ni olaylik. Biz o'quvchi-yoshlar gazeta orqali respublikamizdagi tengdoshlari



miz hayoti va ijodi bilan tanishamiz, maqolalar yozib, ularni ham qiziqish va intilishlarimizdan xabardor qilamiz. Eng asosiysi, gazetaning har bir sonini to'plab boramiz va istalgan paytda gazeta taxlamlarini varaqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Men ushbu kasb egalarga juda havas qilaman. Kelajakda qalami o'tkir, faqat haqiqatni yozadigan, xalq dardini tushunadigan, aholini

qiynayotgan muammolarni hal qila oladigan, ularga to'g'ri yo'l ko'rsata oladigan, izlanuvchan, topqir va tashabbuskor jurnalist bo'lmoqchiman. Nasib bo'lsa, bu kasbni egalab, Vatanimga, xalqimga, Prezidentimga munosib farzand bo'laman, ota-onam va ustozlarim ishonchlarini oqlashga harakat qilaman.

Shahina OLIMOVA,
Navoiy viloyati,
Zarafshon shahridagi
10-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



Do'stlik masofa bilmaydi. Uzoq masofalardan turib bir-birini tushuna olishni haqiqiy do'stlik, deb bilaman. Ana shu jihatdan «Tong yulduzi» gazetasini bizning chin ma'nodagi do'stimiz, deb ayta olamiz. Biz barcha sirlarimizni unga ishonamiz, u bizni tushunadi, bizga imkon beradi, qo'llab-quvvatlaydi...

O'zim Andijondanman. lekin yaqin dugonalarimdan biri qashqadaryolik Marjona ismli qiz. «Tong yulduzi» gazetasiga ana shu dugonam bilan do'stligimiz haqida yozmoqchiman.

Do'stlik va sadoqat tushunchalari bir-biriga ma'nodosh, bir-biriga chambarchas bog'liq. To'g'rirog'i, sadoqat bu do'stlik, do'stlik esa sadoqatdir. Do'stlik shunday bir daraxtki, urug'i vafo, shoxlari umid, yaproqlari saodatdir. Haqiqiy do'stlik quyosh botishi bilan g'oyib bo'lmaydi, qor kabi tez erib ketmaydi.

Marjona bilan ijtimoiy tarmoqlarda tanishganmiz. Men uning «Facebook»dagi sahifasini kuzatardim, joylagan maqolalariga munosabat bildirardim. Oradan bir necha oy o'tgach, taqdir taqozosi bilan Yoshlar tashkilotining «Sardorlar anjumani»da uchrashdik, bir-birimizni faqat ijtimoiy tarmoqda tanir edik, nimadan gap ochishni bilmay, bir vaqtda ikkimiz ham:

– Xumoramisiz?

– Siz Marjonasiz, shundaymi? – deya bir-birimizga savol berib tanishib oldik. Omadimiz kelib, tashkil etilgan besh kunlik «Sardorlar anjumani»da bir xonaga joylashdik, bir jamoada bo'lib, seminar-treninglarda birga ishtirok etdik. Shu tariqa yaqin dugonalar bo'ldik. Bizning bir shiorimiz bor: «Yomg'irda soyabon bo'lmagan do'st, do'st emas!» Marjonadan boshqa dugonalarim borku-ya, lekin u boshqacha, kerakli maslahatlarni doim undan olish mumkin. Hasad emas, havas qilish orqali ko'p narsaga erishish mumkinligini undan o'rgandim. Yoshimiz teng, ikkimiz ham 10-sinfda tahsil olamiz. Agar dars borasida qiyinchilik bo'lsa, bir-birimizga ko'mak beramiz. Biz deyarli har kuni birgimiz. Negaki, bizda havas qilgulik do'stlik bor, biz uni asraymiz va qadrlaymiz.

Xumora MUHAMMADJONOVA,
Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi
39-umumta'lim maktabi o'quvchisi

GERMANIYA TAJRIBASINI O'RGANIB...

Qadrlı o'quvchilar!

Noshirlik-matbaa faoliyati sohasida mutaxassislarni tayyorlash kolleji Respublikada yagona hisoblanib, kollejda 2020–2021-o'quv yilidan boshlab Xalqaro standart dasturlar asosida malakali mutaxassislarni tayyorlanadi. Yangi o'quv yilida kollejga o'quvchilar qabuli avvalgidek majburiy kvotalar asosida emas, balki ish beruvchi tomonning talabi asosida amalga oshiriladi.

Mazkur kollej Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tasarrufida bo'lgani sababli, yuqorida qabul qilingan Farmonga asoslanib, agentlik tomonidan buyurtmalar portfeli shakllantirildi. Biz ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, qabul kvotasini belgilaymiz. Ya'ni, har bir korxona, idora o'ziga zarur bo'lgan mutaxassislarni uchun buyurtma beradi. Bizning vazifamiz ana shu buyurtmalar asosida kerakli kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Shu tariqa kollejimiz bitiruvchilarining ish o'rinlari ham kafolatlanadi.

Ta'lim tizimidagi islohotlarning yana bir muhim jihati shundaki, kollejimiz kadrlarni ilgarigiday 3 yilda emas, kasblarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 3 oydan 2 yil muddatgacha tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari asosida tayyorlaydi. Endilikda o'quv jarayonlari faqat sinf xonalarida emas, balki Germaniyada tajriba sinovidan o'tgan «dual» ta'limi asosida amalga oshiriladi. O'quvchilar nazariy bilimlar bilangina chegaralanib qolmay, amaliy ko'nikmalarni ham egallab boradilar.

Shuningdek, ta'lim sifatini oshirish maqsadida kollej rahbariyati tomonidan chet davlatlar bilan ikkita memorandum imzolandi. Pedagog xodimlar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari bugungi kunda ta'lim



Nodira TUYQULOVA,
O'zMTDP Shayxontohur tumani
Kengashi deputati

sohasidagi ustuvor masalalar va islohotlardan xabardor bo'lgani holda o'z bilimlarini mustahkamlab, 2020–2021-o'quv yiliga puxta hozirlik ko'rmoqdalar.

Biz – kollejda faoliyat yuritayotgan barcha pedagog-xodimlar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari yangi 2020–2021-o'quv yilida xalqaro standartlarga javob bera oladigan ta'lim jarayonini boshlashga tayyormiz!

YANGI O'ZBEKISTONNING IJODKOR BOLALARI

Nilufar YO'LDOSHEVA, pedagogika fanlari nomzodi, poytaxtimizdagi Abdulla Qodiriy ijod maktabi direktori

Mamlakatimizda ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilgani iqtidorli yoshlar bilan ishlashning yagona va samarali tizimini yaratish imkonini berdi. Muhtaram Prezidentimiz Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'quvchilari bilan birgalikda olib borgan «Mahorat darsi»dan so'ng maktabimizdagi har bir o'g'il-qiz bilim cho'qqilarini yanada g'ayrat bilan zabt etishga kirishdi. Binobarin, adabiyotni sevadigan, mutolaa-ga ishtiyoqmand bolalardan hech qachon yomonlik chiqmaydi. O'zim ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lganligim sababli, hayot yo'limni belgilashda o'qigan asarlarimning ijobiy qahramonlariga o'xshashga intilib yashayman. Qayerdadir bolaning jinoyat ko'chasiga kirgani haqida ma'lumot o'qib qolsam, adabiyot o'qituvchisi unga yaxshi saboq bermagan ekan-da, deb o'ylab qolaman.

Agar maktabimiz o'quvchilari haqida gapiradigan bo'lsam, 121 nafar o'quvchilarimizning har biri bir-birini takrorlamaydigan noyob qobiliyatiga ega, desam, mubolag'a qilmagan bo'lsam. Endigina qalam tebratishga yoki murg'ak tasavvurlarini rangtasvir orqali ifodalashga chog'lanayotgan, bolalik xayolotining uchqur otiga mingan bolakay tuyg'ularini tarbiyalash mas'uliyati tinimsiz izlanishni, o'z ustimizda mutassil ishlash zaruratini tug'diradi. Xo'sh, ijodkor o'quvchining o'ziga xosligi nimalarda namoyon bo'ladi? Tinimsiz mehnat qilishi, aytilgan vazifani so'zsiz bajarishi, so'zamolligi, his-tuyg'ularini, fikrlarini atrofdagilarga yetkazib bera olishi, to'g'ri so'zdan qaytmasligi, adolat ustuvorligi yo'lida kurashuvchanligi, atrofida sodir bo'layotgan voqealarga bee'tibor emasligi, ularga o'z munosabatini bildirib olishi, o'z «men»idan o'zgalar manfaatini ustun qo'yishida! Ularda bu kabi o'nlab insoniy fazilatlarini kamol toptirish esa mazkur ijod maktabi pedagoglari oldida turgan asosiy vazifadir. Masalan, 5-sinf adabiyot darsligida berilgan Abdulla Qodiriyning «Uloqda» hikoyasi yoki 7-sinf adabiyot darsligida berilgan shu adibning «Mehrobdan chayon» romanidan parcha o'qish asosida o'tiladigan darsimizda mavzularga

mos holda qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga intilamiz, o'quvchilarimizga kichik tadqiqotlar olib borishni tavsiya qilamiz. Bunda o'quvchi asarni to'liq o'qish bilangina kifoyalanmasdan, asar qahramonlariga maktub yozishi, ularni qanday tasavvur qilsa, shunday tasviriy ifodasini chizish orqali jonlantirishi yoki asardagi biror bobni, xotimani o'zining



ijodiy yondashuvlari orqali adib yoxud shoir sifatida qayta ifodalab ko'rishi uchun imkon beramiz. Fikrning xulosasi o'rnida, adabiyot fanini o'qitishdan bosh maqsadimiz kitobsevar, ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashdir. Ayniqsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan Adiblar xiyoboni tashkil etilganligi, 24 nafar shoir va adiblar haykallari o'rnatilganligi bizni behad quvontirdi. Bu xiyobon qalam ahlining eng sevimli, qadrlil, muqaddas maskaniga aylanishi, shubhasiz.

Har bir sohada ham puxta bilim olgan odam hech qachon kam bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi keng, chuqur fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan yoshlarni tayyorlash zarurati Davlat rahbarining ta'lim sohasi vakillariga bo'lgan yuksak ishonchi namunasidir.

OCHIQ OSMON OSTIDA

3-iyul kuni «Abdulla Qodiriy izdoshlari» to'garagi a'zolari Adiblar xiyoboniga tashrif buyurishdi. O'quvchilar ustozlariga adabiyot, ma'rifat va madaniyat maskanida ta'til davrida amalga oshirayotgan ishlari, o'z ijodlari haqida so'zlab berishdi.

Ijodkor o'quvchilar bilan bo'lib o'tgan darsda Prezidentimiz tashabbusi bilan Adiblar xiyobonini yaratish rejasi belgilanganligi, xiyobonda adib va shoirlarning haykallari sonini ko'paytirishni taklif etganligi haqida bilib oldik. Bu yerda ochiq darslar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazilishiga hamda o'zbek yozuvchilarining asarlarini xorijda ommalashtirish ishi bilan Yozuvchilar uyushmasi tashabbuskor bo'lishini ham ta'kidlangan ekan.

Ijodkor o'quvchilar bugungi ochiq saboqdan olam-olam taassurot olib, yana maroqli ijodlarni davom ettirish uchun chog'landilar.

Ochiq osmon ostida bo'lib o'tgan mashg'ulot o'quvchilar xotirasida bir umr muhrlanib qoldi va galdagi ishlarini rejalashtirishlari uchun ilhom bag'ishladi.

Mirzahamdin TO'LQINOV,
Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'quvchilari



Bugun hisoblab ko'rsam, qutlug' dargohimiz - maktabimizga bora olmayotganimizga ham roppa-rosa uch oy bo'libdi. Avvallari bu muddat bizga yozgi ta'til uchun biroz kamlik qilgan-dek bo'lsa, ayni paytda ta'til kunlarimiz karantin hisobiga cho'zilib ketgani bois, ortiqchadek tuyulyapti...

MAKTAB HAYOTI MO'JIZANING O'ZGINASI

Qalbimning bir parchasiga aylangan maktabimizni juda sog'indim. Har haftada kam deganda ikki-uch marotaba ijodiy uchrashuvlar, hafta oxiridagi ijod

kunlari, o'zgaracha yo'nalishdagi darslar, ustozlarimiz bilan bahs-munozaralarga boy tarzda o'tadigan ma'rifat soatlari, turli tanlov va musobaqalar... Eh-he, bularni sanasam hali uzoq gapirishimga to'g'ri keladi. Umuman olganda, maktab hayotimiz juda jo'shqin va mo'jizaning o'zginasi.

Lekin rejalarimni amalga oshirishga to'sqinlik qilgan bu pandemiya ofati men kabi yoshlarning ishtiyoqini so'ndira olmaydi, bizni harakatdan to'xtata olmaydi. Men ham o'z rejalarimni uyda onlayn tarzda amalga oshirdim, «Yosh kitobxon» onlayn-tanloviga tayyorlanish jarayonida juda ko'plab kitoblar o'qidim. Men ham may oyida maktab-

doshlarim uchun shunga o'xshash onlayn-tanlov tashkillashtirdim. Ta'tilni maroqli, mazmunli o'tkazib, yangi o'quv yilida jaranglaydigan birinchi qo'ng'iroq sadolarini qadrdon go'shamiz - maktablarimizda kutib olish bizga nasib qilsin.

Gulobod NURALIYEVA,


Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

5 SIMPLE TIPS TO LEARN ENGLISH MORE EASILY

Today English is the language that you use in everyday life. It is taught as a second language in Uzbekistan as well as many countries. But a lot of students feel boring while learning English and sometimes find it difficult. Why? I think always repeating something again and again, and only reading grammar rules are dull. Instead, use some 5 tips to learn English easier and without getting bored!

Tip 1. Learn English through movies and videos.

Watching movies or videos can really help you with your listening and pronunciation. When you watch and listen them your brain usually copies the pronunciation of the word and the next time you will pronounce it correctly. Also follow some YouTube channels like «Speak Like a Native», «Speak English with Vanessa», «Oxford Online English» and many others.



Tip 2. Learn 5 new words a day.

It is the best way to improve your vocabulary. Only 5 words a day means 37 words in a week and 150 words in a month. That is SUPER, isn't it? If yes, let's try it!

Tip 3. Record yourself. It is helpful for your speaking. When you are recording your speech pay attention to the speed, volume and emphasis of your voice because when you've

got them you will sound as a confident speaker. Listen the recording again and find your mistakes.

Tip 4. Mix your interests with English. Study interesting information for you. What do you do in your free time? Do you like cooking? Reading books or news? Why don't do it in English? Find recipes, read books or magazines written in English. Because you will learn something completely if you are interested in it and it is one of the ways to learn languages with fun.

Tip 5. Listen to podcasts and audio-books. «6 minute English», «TED talks», «BBC podcast» and «British Council» are the most interesting podcasts. Don't pay attention to the questions, only listen to the podcasts, understand what's going on and enjoy conversation.

Listening to audiobooks are also useful. Listen it while reading the book. By this way your brain both reads the text and listens to the audio. Tip 5 helps with your pronunciation and listening skills like tip 1. But it gives you such a chance that you will become familiar with the literature of foreign countries and writers. Reading books in the original language is enjoyable and you feel the real atmosphere of the book.

The tips, I've given you above, are the most commonly used in English speaking countries. You can use them to improve your English easier than before. Don't forget: learning English isn't something that you have to do, it must be your everyday happy life. Your brain learns quicker with fun and a lots of interest. All you need to do something is only a wish. So, open your mind to new ways of learning English!

Good luck!!!

Kamolakhan KODIROVA,
the pupil of school № 32, in Kiziltepa district, Navoi region.

PUT THE WORDS IN ORDER

1. (to work/ every day/ walks/ my father)

2. (at the hotel/ I/ early/ arrived)

3. (go/we /every year/ to Samarkand)

4. (girls/ very much/ don't like/ foot-ball)

5. (we/ at the airport/ some friends/ meet)

6. (the door/ I/ slowly/ opened)

7. (the problem/ carefully/ I/ explain)

8. (to cinema/ tomorrow evening/ are you going?)

9. (my mobile phone/ I/ last night/ left/ in restaurant)

10. (a lot of/ I/ shopping/ did/ yesterday)



PHRASAL VERBS

Phrasal verbs: believe in, turn down, throw away, put out, try on, switch on, take off, fill in, get on, look for.

1. Quick! _____ the bus. It's ready to leave.

2. I don't know where my book is. I have to _____ it.

3. It's dark inside. Can you _____ the light, please?

4. I need some new clothes. Why don't you _____ these jeans?

5. It's warm inside. _____ your coat.

6. This pencil is really old. You can _____ it _____.

7. It's so loud here. Can you _____ the radio a little?

8. The firemen were able to _____ the fire in Church Street.

9. _____ the form, please.

10. Does your little brother _____ ghosts?




Muhammadsharif FAYZULLAYEV

INGLIZ TILINI O'YINLAR BILAN O'RGANAMIZ

Keling bolajonlar, o'z bilimlarimizni ingliz tilida sinab ko'rish maqsadida bir nechta qiziqarli o'yinlarni birgalikda o'ynab ko'ramiz.

MAZE – LABIRINT O'YINI


Bu o'yinda bolajonlar labirint bo'ylab yuramiz. Sabzavot va meva so'zlarining oldidan mos kelgan artikl «a» va «an»ni belgilab chiqishimiz kerak. START tugmasini bosib FINISH tugmasigacha yetib borgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Tayyor bo'lsangiz, boshladik!



FIND AN ADJECTIVE – SIFATNI TOPING


Kim maktabda ingliz tili fanidan a'lo bahoga o'qisa, bu o'quvchi navbatdagi o'yinimizni hech bir qiyinchiliksiz o'ynay oladi. Hozir ingliz tilidagi so'z boyligimizni birgalikda sinovdan o'tkazamiz. Masalan, «HOUSE», «UY» so'ziga qo'shimcha ta'rif beruvchi sifat turkumiga oid so'zlarni topamiz. O'yin shartini tushunib olgan bo'lsangiz, navbatdagi **family** va **museum** so'zlariga mos sifatlarni izlashni boshlang.

BIG
BROWN
BEAUTIFUL



MOVING WORDS – HARAKATLI SO'ZLAR


Navbatdagi mashqimizda gramatik qoidalarni qanchalik yaxshi bilishingizni sinovdan o'tkazamiz. Bunda sizdan qog'oz parchalarida tartibsiz yozilgan so'zlarni tartibga keltirib, qoida asosida gap tuzishingiz talab etiladi.



Dilfuza MURODOVA,
Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi 322-umumta'lim maktabining
ingliz tili fani o'qituvchisi

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

COLOR BY NUMBER



WHAT IS IT?

**Only one color, but not one size,
Stuck at the bottom, yet easily flies.
Present in sun, but not in rain,
Doing no harm, and feeling no pain.**

Shadow

**It can't be seen, can't be felt, can't be heard, and can't
be smelt. It lies behind stars and under hills, And empty
holes it fills. It comes first and follows after, Ends life,
and kills laughter.**

The dark

**It is a 5 letter word if you take away first letter it is
something you get from sun, if you remove second letter
you will get something to eat, if you remove third letter
you get a word you use in pointing at and if you remove
the fourth letter you get something to drink.**

Wheat

**My thunder comes before the lightning; My lightning
comes before the clouds; My rain dries all the land it
touches.**

A volcano

**My tongue is long, my breath is strong,
And yet I breed no strife;
My voice you hear both far and near,
And yet I have no life.**

A bell

Internet sources

Bundan minglab yillar muqaddam yerdə qoʻrquv, makr, hiyla, gʻazab hukmronlik qilardi.

Oʻljalar esa yirtqich qarshisida qoʻrquvdan dagʻ-dagʻ qaltirardi.

Yirtqichlar oʻljalarini burdalab tashlashdan oʻzlarini tiya olmasdilar va...

JONIVORLAR SHAHRI

Politsiyachi quyon!!! Umrmda bundan-da bemaza gapni eshitmaganman.

– Ha, albatta, bu aqling bilan buni tasavvur ham qilolmayсан.

– Bu gaplar senga tegishli, Gideon Grey.

– Bu yerdan ikki yuz kilometr uzoqlikda ajoyib Jonivorlar shahri joylashgan.

QARSAKLAR

– U yerdə ajdodlarimiz doʻstlik abadiy qasamini ichganlar. U yerdə har kim istagan orzusiga erishishi mumkin.

– Qaroring qatʼiymi, Judy? Sen shunchaki rol oʻynading. Shundaymi?

– Haliq... sen bir narsani bilishing kerak. Hali tarixda birorta ham politsiyachi quyon boʻlmagan.

– Unday boʻlsa, men birinchisi boʻlaman.

– Balki biz bilan birga sabzi fermasida ishlarsan.

– Otang, men, 275 ta uka-singil-laring bilan birga – butun oila boʻlib...

Oʻsha davrda dunyo ikkiga ajratilardi: shafqatsiz yirtqichlar va bechora oʻljalar.

Ammo endi jonivorlar olamida doʻstlik hukmron. Hozirda hayvonlar uchun turfa imkoniyatlar eshigi ochilgan.

Menda adolat uchun kurashib, dunyoni yaxshilik tomon yetaklash imkoni bor. Men shahrimizning jasur politsiyachilari safiga qoʻshilmoqchiman.

– Hm... Men, albatta, politsiyachi boʻlaman.

– Bu ishing uchun javob berasan!

– Ularga chiptalarini qaytar.

– Be-be!!! Nega bagʻrayasan, yigʻloqi?

– Qani, chiptalarni buyoqqa choʻz, pahmoqboosh.

– Sen ham ulardanmisam? Ehtiyot boʻl! Nima boʻlganda ham men tulkiman. Tulklar esa qachonlardir quyonlarni burdalab tashlagan.

– Sendan zigʻircha ham qoʻrqmayman, Gideon.

– Ichingdagi qoʻrquvni mana bu burunchang sezdirib qoʻyyapti.

– Qani, bir yigʻlab ber-chi.

– Chiptalarin-gizni oling!

– Mening chiptalarim!

– Uni bop-lading, Judy!

– Men oziq ham, qoʻrqoq ham emasman!

O'n yildan so'ng,
Judy politsiya
akademiyasida tah-
sil ola boshladi.

– Diqqat, kursantlar! Jonivorlar
shahri ma'muriy va iqlim sharoit-
lariga qarab 12 tumanga bo'lingan.
Qahraton – Tundra, Saxara-siti,
Tropik o'rmon va boshqalarga.

– Sizlar bu joylarning
barchasida xuddi o'z
uyingizdagiday erkin hara-
katlana olishingiz kerak.

Judy eng yaxshi
talaba bo'lish uchun
astoydil harakat qildi.

Nihoyat, bitiruv-
chilarga diplom
topshiriladigan
kun keldi.

– Hokim o'rinbosari
Barashkis, nishon-
larni topshiring.

– Bugun kichik
jonivorlar uchun
o'zgacha kun!

– Jonivorlar shahri hokimi si-
fatida sizlarga bizning o'quv
dasturimiz o'z samarasini
berganligini xabar qilishdan
nihoyatda baxtiyorman.
Bu diplom-
ning sohibasi
tarixdagi birinchi
quyon-politsiyachi
Judy Hops.

– Iltimos, Ba-
rashkis, chetroq-
da turing.

5

Poyezd asta-se-
kinlik bilan joyi-
dan qo'zg'aldi.

– Xayr!!!

– Ko'rish-
guncha!!!

Poyezd qalbi hayajonga
to'lgan Judy Hopsni u
uchun yangi olam bo'lgan
– Jonivorlar shahri tomon
olib ketayotgan edi.

Sovuq hukmron bo'lgan Qahraton
– Tundra, tinmay yomg'ir yog'adi-
gan Tropik o'rmonlar-u jazirama
Saxara-siti ortda qolgach...

Judy Hops nihoyat jonivor-
lar shahrining markaziy
stansiyasiga yetib keldi.

Bu joyda fillardan tortib sich-
qonlargaacha – hamma uchun
sharoit yaratilgan.



Ertasi kuni Judy Hops
Jonivorlar shaharchasida-
gi ilk ish kunini boshlash
uchun uyidan chiqqan edi.

– Balki ke-
ragi yo'qdir...

– Yo'q, bu
ahmoqona
ish...

– Har ehtimolga
qarshi olganim
ma'qul.



– Ovu! Mo'ylovlarim haqqi.
Haqiqatan ham quyonchani
ishga qabul qilishibdi. Oh,
bu quloqlarda shunagangi
yoqimtoy ko'rinyapsanki...

– Voy... Balki bilmassiz.
Lekin biz quyonlar quloqlar
haqidagi bunday gaplarga
o'zimizni chetga olamiz.
Chunki ular biroz haligiday...

– Qanday ajoyib!!! Men
Benjaminman. Ba'zan
shirin kulchalar aqlimni
olib, boshqalarni unutib
qo'yaman.

– Ha, hechqisi
yo'q. Aytgancha,
labingizga ni-
madir yopishib...

– Xullas, mana shunaga gaplar!
Bir necha daqiqadan so'ng
majlislar xonasida...



DAVOMI BOR

8

OPPOQ QOG'OZDAGI OYDIN TILAKLAR



Sizdan «Eng katta orzungiz nima?» deb hech so'rashganmi? Qiziq, orzuning ham katta-kichigi bo'lar ekanmi? Bu savolga bilag'on o'quvchilarimning ijodi orqali oydinlik kiriting. Gap shundaki, 1-sinf ona tili darsligidagi 176-mashqda «Mening orzum» mavzusida matn tuzish uyuq vazifa qilib berilgan. Karantin tufayli masofaviy ta'lim olayotgan kichikintoylarimning «Telegram» guruhi orqali menga yuborgan uyuq vazifalarini o'qib, uni qadrdon «Tong yulduzi»miz bilan o'rtoqlashishga ahd qildim.

Orzu, nima o'zi u? Inson orzu qilmasdan yashay oladimi? Orzular faqat yaxshilikka xizmat qiladimi? Siz ham bu savollarga javob toping, balki orzungizga bo'lgan ishonchingiz mustahkamlanar.

Orzu qilish shunchalar muhimki, uning hayotin-

gizdagi o'rmini hatto tasavvur ham qila olmaydiz. Orzu – bu ho-yu havas emas. U insoniyatning shu kunga yetib kelishiga sababchi bo'lgan mustahkam tirgakdir. Keksalar, «Hamma narsa niyatga bog'liq», deb bejiz aytishmagan.

Darvoqe, ayni mavzu bo'yicha 24 nafar o'quvchimning barida o'ziga xos orzu-umidlari bor. Ular bir-biriga o'xshamaydi. Onlayn darslarida o'quvchilarim orzu haqida menga yo'llagan fikrlari bilan Siz ham tanishib ko'ring-a. Oppoq qog'ozga bitilgan ushbu oddiy va oliy orzular ertaga ularni oydin yo'llarga boshlasa, ne ajab?!

Iroda JO'RAQULOVA,

Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi

10-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Muhammadrizo YUSUPOV: – Men kelajakda harbiy bo'laman va jona-jon Vatanimiz bo'lgan O'zbekiston tinchligini ta'minlayman. Harbiy bo'lish uchun jismoniy mashqlarni ko'proq bajarish, ruhan kuchli, qat'iyatli bo'lish kerak. Men bergan va'damni, albatta, bajaraman.

Madinabonu SHUHRATOVA: – Men katta bo'lganimda, shifokor bo'lmoqchiman. Hamma bemorlarni davolab, dardiga shifo topaman. Chunki shifokor odamlar dardiga malham bo'ladi. Mening orzum – dunyodagi barcha odamlar sog'-omon bo'lsin!

Oynura ESHQUVVATOVA: – Men o'qituvchi bo'lishni orzu qilaman. Chunki muallim xalqqa ma'rifat, ziyo tarqatadi. Kelajakda o'qituvchimiz Iroda Hayitboyevnaga o'xshagan ustoz bo'lmoqchiman. Menimcha, orzuning katta-kichigi bo'lmaydi, orzuga erishish uchun astoydil harakat qilish kerak.

Husniya O'ROQBOYEVA: – Men kitoblarim juda ko'p bo'lishini orzu qilaman. Katta bo'lsam, kutubxonachi bo'lmoqchiman. Bo'sh vaqtimda ertak kitoblarni sevizib o'qiyman. She'r va maqollar yodlash jon-u dilim. Onamning aytishicha, ko'p kitob o'qigan, uning ma'nolarini uqqan odamning orzusi, albatta, ushalar ekan.



ORZUNING KATTA-KICHIGI BO'LADIMI?

Hanifa HABIBULLAYEVA: – Mening orzularim juda ko'p. Eng asosiysi, ota-onamni doim xursand ko'rish va ularning orzularini ro'yobga chiqarishdir. Shuning uchun men barcha fanlardan a'lo baholarga o'qiyapman.

Rayhona ABROROVA: – Mening orzum – o'qituvchi bo'lish. Buning uchun a'lo baholarga o'qib, odobli, aqlli bo'lishga intilaman. Chunki orzum orzuligicha qolib ketmay, albatta, amalga oshirishini istayman va shunga astoydil harakat qilaman.

Munisa AHMADOVA: – Mening eng katta orzum – kim bo'lishimdan qat'iy nazar, yaxshi inson bo'lish, odamlarga foydasi tegadigan mutaxassis bo'lib yetishish. Qolaversa, maktabni bitirib, eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida o'qishni orzu qilaman.

Sardor RAVSHANOV:

– Biz Vatanning yulduzi,
Ertasi, umid ko'zi,
Xizmat qilmoq baxt o'zi.
Tilimizda shu orzu,
Dilimizda shu orzu.

**FAQAT
QIZLAR
O'QISIN!**

«Qiz bolaning kulgusi hayotdan roziligi – oilaning baxti».
Shavkat MIRZIYOYEV

AHIL OILANING BAXTLI QIZLARI

Dunyoda insonning jamiyatda tutgan mavqeiga bog'liq bo'lmagan bir vazifa bor, u onalik va otalik «vazifasi»dir. Ota-onaning o'ziga yarasha mas'uliyati bor. Ularning vazifasi farzandni dunyoga keltirishdangina iborat emas, balki uning ta'lim-tarbiyasiga, salomatligiga, biror kasb egasi bo'lishiga ham e'tibor qaratishdan iborat. Chunki ota-onalar farzandlarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardirlar. Bola tarbiyasida otaning qattiqqo'lligi, onaning mehribonligi hal qiluvchi omillardandir. Shuningdek, bola tarbiyasi oiladagi sog'lom muhitga, mehr-muhabbat, oqibat, o'zaro hurmat va totuvlikka asoslangan oilaviy munosabatlarga, ota-onaning bilim saviyasiga, iymon-e'tiqodi, dunyoqarashining boyligi, pul va moddiy boyliklarga munosabati va shu kabi juda ko'plab omillarga ham bog'liqdir.

Har bir mam-lakatning qudrati sog'lom fikrli, bi-

inson deb ataymiz. Komil inson avvalo, oilada tarbiyalanadi. Keyin esa ta'lim, muassasalarda mukammallashib boraveradi. Go'daklik va bolalik davrida koyimasdan, yoshiga yarasha munosabatda bo'lish hadislarda zikr etilgan. Mentalitetimizda, ayniqsa, qiz bolaning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Zero, bugungi qizaloq – ertaga bo'lajak ona, farzand tarbiyachisi hisoblanadi. Shunday ekan, qizlarga yoshligidanoq uy tutish, tikish-bichish, pazandachilik kabi yumushlarni o'rgatish onaning vazifasi hisoblanadi. Ularni bolalikdanoq ozodalikka, shirinsuxanlikka, o'zidan kattalarni hurmat qilishga o'rgatish kerak. Qizlar oila saboqlarini buvisidan, onasidan, opalaridan, qo'ni-qo'shnilaridan, jamiyki, mahalladoshlaridan oladi. Tarbiyada eng mas'uliyatli vazifa onaga topshirilgan ekan, onajon-

larimiz bu jarayonlarga yanada e'tiborli bo'lib, qizlarining sog'lom unib-o'sishi, ilm-u hunar egallab, odob-axloq, ibo-hayoda ham boshqalarga o'rnak bo'lishiga

bolaning ruhiyati, dunyoqarashi va fikrlashi kundan kunga o'zgara boradi. Shuning uchun ham qiz bolaning ko'ngliga yaxshi gap bilan, shirinsuxanlik bilan yo'l topish lozim.

Bir olim kishidan: «Dunyoda o'limdan yomoni nima?» deb so'raganlarida, u: «Qizingning noqobil bo'lishidir», deya javob bergan ekan.

Asrlar, zamonlar bu azaliy haqiqatni o'chira olmaganidek, tig'ini ham o'tmaslashtira olmaydi. O'zbek xonadoni borki, agar unda qiz o'sayotgan bo'lsa, shu xonadon sohiblarining ko'nglida g'urur, surur, shukur va qiz sha'ni bilan bog'liq or-nomus ham yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham xalqimiz qiz bolaning ma'naviy yetuk, komil inson bo'lib o'sishiga alohida ahamiyat qaratadi.

Bolalarning xulq-atvoridagi xatoliklar ota-onalarning xatolaridir. Oila, oila a'zolarining, ayniqsa, ota-onaning axloqiy-ma'naviy yetukligi va ma'rifiy qarashlari farzand tarbiyasi va kamolida eng zarur va muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oila bolalarni hayotga tayyorlovchi maktabdir. Shunday ekan, muqaddas oilalarimizni mustahkamlaylik, oilaviy qadriyatlarimizni asraylik, azizlar!

Iroda BOZOROVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 36-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

**Oila hayotga
tayyorlovchi
maktab.**

limli, axloq-odobl, xalq, millat, Vatan taqdiriga o'zini daxldor deb biladigan insonlarning ko'pligi bilan belgilanadi. Bunday insonlarni komil

**Hayo inson
ziynatidir.**

ahamiyat qaratadilar. Tarbiya jarayonidagi eng muhim vosita bu mehr va shirinsozlikdir. Bu ikki vosita nozik qalb sohibasi bo'lgan qiz bolaning ko'ngliga yo'l topish, uni avaylab parvarishlash uchundir.

Jamiyatimizdagi ana shunday ibratli oilalarda voyaga yetayotgan qizlarga boqib, ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy asarlarida keltirilgan Kumush-u Ra'nolar siymosi ko'z oldimizda gavdalanadi. Qiz bola onasidan muomala madaniyatini o'rganadi, harakatlariga taqlid qiladi. Undan, eng yaqin insoning kim, deb so'rasangiz, albatta, «Onam», deb javob beradi. 11 yoshidan qiz

**Or-nomusi
bor qizlar
hamisha
go'zaldir.**

**Oqila qiz –
oila faxri.**





KIMYOGAR TAMTUMBOV

Kimyo fani ustози,
Shunday savol beradi:
– Qani, ayting bolalar,
Suv qanday olinadi?

Ikki qo'lin ko'tarar,
Sal shoshilib Tamtumbov.
Do'stlaridan oldinroq,
«Besh» olmoqchi, hoynahoy.

– Mayli, – dedi muallim,
– Sen javobni aytaqol.
Tamtumbov qilg'idan,
Sinf doshlar qoldi lol.


Bahrom AKBAR, bolalar shoiri

Yaqinda tahririyatning maxsus yo'llanmasi bilan Respublikamiz viloyatlaridan biridagi To'raqishloqda bo'ldim. To'raqishloq juda qadimiy joy bo'lib, toza havosi, nashvati-yu anorlari, uzum, anjir, bananlar, baqlajon, rediska va sarimsoq piyoz bilan mashhurdir. Odamlari juda quvnoq bu qishloq ahli adabiyotni jon dilidan yaxshi ko'rishi bilan menda kuchli taassurot uyg'otdi. Qishloq oqsoqoli Shodumon aka meni qishloqdagi 30-umumta'lim maktabi o'quvchilari bilan tanishtirdi. Ular o'zlari yozgan she'r, ballada, dostonlarini mushoira davomida o'qib berishdi. Menga Tamtumbov degan bolaning dono savollari yoqdi. Uni darhol oqqa ko'chirdim.

– Ustoz, – dedi Tamtumbov,
– Suv chelakda olinar.
So'ngra uni taqsimlab,
Chovgumlarga solinar...

ANTIQA JAVOB

Geometriya darsida,
Borar bahs-munozara.



Tamtumbov javobidan,
Ustoz ham hayron edi.
Shogirdiga jilmayib,
Senga «dumli besh» dedi.

Savol shunday qo'yilgan:
Nima asli – doira?

Eng oxirgi partadan,
Qo'l ko'tarar Tamtumbov.
To'g'ri javobni balki,
Bilsa kerak hoynahoy.

Birma-bir qarab ustoz,
Tamtumbovda to'xtadi.
Bir jilmayib qo'ydi-da:
– Bilsang, aytaqol, – dedi.

– Ustoz, – dedi Tamtumbov,
– Doirani bilaman.
Ishonsangiz gapimga,
Uni chalib ko'rganman.

Ustoz hayron bo'lib:
– Rostdanmi? – deb so'raydi.
Sinf doshlar bu gapdan,
Qiqirlashib kuladi.

– Rost, rost, – dedi hovliqib,
– Doira – bu chirmanda.
Sizga aytсам «daka-dum»,
Tovushiga borman-da!

Tamtumbov javobidan.
Sinf doshlar kulardi,
Doira bu – chirmanda,
Endi hamma bilardi...



BESH TASHABBUS – ULUG' YO'L

Besh tashabbus – ulug' yo'l
Komillikka undaydi,
Buyuk kelajak sari,
Yoshlarni yetaklaydi.

Vatanim ravnaqiga,
Bor kuchimni sarflayman,
To'rtinchi tashabbus-la,
Olg'a qadam tashlayman.

San'at, sport, kompyuter,
Doim bo'lar hamrohim.
Bo'lay deb zo'r tarjimon,
O'qiyman dil kitobim.

Yurtboshimiz, otamiz,
Bizga ishonch bildirar.
Bu ishonchni oqlashga,
Qalbim g'ururga to'lar.

Sarvinov ORIFJONOVA,
Namangan shahridagi 2-Davlat
ixtisoslashtirilgan maktab-
internati o'quvchisi

O'ZBEKISTON

Olam ahlin lol etgan ham o'zingsan,
Meni xursand, shod etgan ham o'zingsan.
Men baxtliman bunda tug'ilganimdan,
Bobolarni yod etgan ham o'zingsan.

O'zbekiston deya tanir yer ahli,
Qo'rqitmaydi seni yovlarning vahmi.
Bundoq o'ylab o'tmishingga qarasan,
Temurlarni bor etgan ham o'zingsan.

Kelajakka intilishdan charchama,
Iqbolingga intilishdan to'xtama,
Bu aniq gap mustaqillik kuningda,
Yulduz kabi porlagan ham o'zingsan.

Muhammadjon HAYDARALIYEV,
Marg'ilon shahridagi Erkin Vohidov
nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

TA'TIL CHOG'I

To'garakda ilmimiz,
Ancha oshib boradi.
Tez bajaray, qani, deb,
Hamma shoshib qoladi.

Ustozlar berib mehrin,
To'kib sochar savolni.
Kim tez yechar ekan, deb,
Shoshiltirar Kamolni.

Ta'til chog'i shoshilmay,
O'rganamiz barini.
Kutayapmiz tez kunda,
Ona maktab bag'rini.

Xurshidbek XAYRULLAYEV,
Buxoro viloyati, Romitan
tumanidagi 1-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

ENG YAXSHI JAVOB

Fotima juda ham ko'p
Qiziq savol beradi:
– Nega mushuk miyov, deb,
Kuchuk vov-vov qiladi?

Nega endi sigirga,
Begonadir vizillash?..
Zuhra javob beradi,
Yarim hazil aralash:

– Menimcha, bu govmishga,
Aytganing kor qilmaydi.
Bizning bu olasigir,
Chet tilini bilmaydi.

Iroda XOLBEKOVA,
Jizzax shahridagi Hamid
Olimjon va Zulfiya nomidagi
ijod maktabi o'quvchisi

U yosh edi. Hali jajji, beg'ubor qizaloq edi... Bolaligini eslasa, doimo bahavo yoz kechalari, pastak devorli uyi, mehnatdan yorilib ketgan qadoq qo'llari bilan sochlarini silab qo'yadigan ayasi yodiga tushadi.

Xo'rozlar birin-ketin qichqira boshlagan, quyosh hali olamni yoritishga ulgurmagani sahar chog'i. Kun yorishib-yorishmay ayasi sigir sog'ishga, non yopishga ulgurgandi.

Yozda hovlida yotishning o'zgacha gashti bor. Qizcha ham hovlida uxlashni yaxshi ko'radi. Lekin erta tongda havo biroz salqin bo'ladi. Hozir ham sovuqdan eti junjikib, ko'rpani yuzigacha tortdi.

— Anora, hoy Anora, tursang-chi, quyosh tepangga kelguncha uxlamoq-chimisan? Hozir borsam... — Sanobar po'pilasini davom ettirmadi, qozondagi sut toshmasin deb oshxonaga yugurdi. Qizcha erinibgina ko'rpadan boshini chiqardi, o'rnidan turib chelakdagi muzdek suvda yuvindi, shunday qilsa, uyqusi qochadi-da. Bu payt ayasi hovlidagi so'riga dasturxon yozib, shirchoy tayyorladi. Ona-bola nonushta qilib bo'lgach, ayasi: «Qizim, kitobni olib chiq», dedi. Anora yugurib bir tabaqali eshikdan qorong'i va zax xonaga kirdi, lekin kitobni ko'p izlamadi, sababi, joyi aniq — deraza yonidagi tokcha ustida. Ayasi har kuni saharlab quyosh chiqquncha unga o'qishni, yozishni o'rgatadi. Bu mashg'ulot qizchaga juda yoqadi, u ayasi bilan ko'proq dars tayyorlashni xohlardi, ammo ayasi kunduz kuni tomorqada ishlaydi, mahalladagi xotin-qizlarga ko'ylak tikardi, kechga borib ro'zg'or yumushlarini bajarardi, yarim kechada charchab, uxlab qolardi.

— Bugun shashting past, qizim, yaxshi o'qimading-ku?! — deydi ayol kuyinib. Anora dabdurustdan: — Dadamni sog'indim, qachon ishlari tugaydi, aya?... — deya ayasini savolga tutdi. Sanobar qizining ko'zlariga qaramasdan: — Bilmadim, qizim, — deb qo'ya qoldi... Quyosh ko'tarilgach, ayol o'z ishlariga sho'ng'ib ketdi. Kichik bo'lsa-da, tomorqa orqasidan va sigirining sut-qatig'i bilan ro'zg'or tebratib turadi. Bu tashvishlar yetmaganday uning yuragi xasta edi. Endi o'ttizni qoralayotgan bo'lishiga qaramay sochlariga oq oralagan, so'lg'in yuzini ajin qoplagan, qarilikni ertaroq bo'yniga olgandi. Onasi shuncha qistadi, shaharda qol, qizingni ham otasiga tashla, davolan, deb, yo'q, u ko'nmasdi. Farzandidan ayro yasholmasdi. Goho eri qattiq kaltaklagan kezlarda shaharga ketib qolardi. Bir gal kelganda, otasi: — O'zing pishirgan osh, — dedi. Yana bir gal kelganda, qizining ko'kargan qo'lini ko'rgach, g'azablanib: — Meni cho'ponga xor qildirib qo'yadigan qizim yo'q, ajrashasan, — deb turib oldi. Otasini zo'rg'a ko'ndirib qishloqqa qaytdi. Keyin eri ursa ham, so'ksa ham yolg'izgina qizini deb chidadi. Kamiga eri endi yangi odat chiqardi, ikki-uch oyab uyiga kelmas, ro'zg'oridan xabar olay demasdi. Sanobar bundan unchalik ranjimas, ammo qizi dadasini sog'inganda, uning ko'zlariga boqa olmasdi.

Peshinga yaqin piyozni o'toqdan chiqarib horigan. Sanobar hovlidagi o'rik soyasida dam olib o'tirganda, qo'shni kampir Nortosh momo: — Horma, bolam, — deb kirib keldi.

— Bor bo'ling, momo, yaxshimisiz? — Tuzuk-tuzuk, esonmisan? Shukur, ranglarinch ancha tiniqlashib qolibdi. — Ha, yaxshiman.

Oraga bir muddat jimlik cho'kdi. Hovli etagidan oqib o'tgan ariqdagi qurbaqalarning «vaq-vaq»i, ko'chadagi bolalarning shodon kulgisi eshitilardi.

— Anora qizim bugun oldimga chiquvdi: «Momo, menam endi maktabga boraman»,

ortiqcha hoy-u havasga berilmadi. O'qishni bitirib, shaharda ishga joylashdi. Hozir ayasi orzu qilgandek adolat himoyachisi — advokat. Qishloqqa borib ayasini ham shaharga kelishga undadi. Ayasi kelmadi. Dadang qaytib kelib, bizni izlab ovora bo'lmasin, degan bahonani ro'kach qildi. Vaholanki, Anora dadasining kelishiga ishonmasdi. U dadasini ko'p kutdi, o'sha yettinchi sinfigida ayasini o'lasi qilib kaltaklab, pasportini olib chiqib ketgandan beri maktabni bitirguncha ota yo'lga intizor o'sdi. Keyin bu holga ko'nikdi.

Bugun ish ko'p, o'yladi Anora ishxona zinasidan ko'tarilar ekan. Shu payt uning xayolini telefon qo'ng'irog'i buzdi.

— Allo, siz Anoramisiz?

— Ha, — dedi Anora ovoz egasini taniyolmadi.

— Ayangiz, — dedi notanish ayol biroz jimlikdan so'ng, — tez qishloqqa kelmasangiz bo'lmaydi.

Anoraning madori qolmadi.

Tushdan keyin qishloqqa yetib keldi. Uylarida odam gavjum...

U hech nimani his qilmasdi, his qila olmadi. Umringiz davomida sizni suyab turgan tog' bo'lsa-yu, u to'satdan qulab, sizni yolg'iz tashlab ketsa... Axir bundan ortiq azob bormikin?! Hatto yig'lashga ham kuch topa olmadi. Nahot, u uchun mo'tabar zot endi yo'q. Ko'zlari o'z-o'zidan yumilib uy, hovli, dunyo uning tevaragida aylana boshladi. Anora hushini yo'qotdi.

Ko'zini ochganida, faqat qo'shni kelinchak ularning uyida ekanligini angladi. Qo'shni sekin: «Singlim, bandalik-da, Xudo sabr bersin», deya qo'lidagi buklangan qog'ozni qizga uzatdi.

Anora qog'ozni ochib, bu ayasining xati ekanligini bildi. Ayasi o'z qo'llari bilan yozibdi, husnixati haliyam avvalgiday chiroyli. Pichirlab xatni o'qiy boshladi.

«Mehribon, qizalog'im, men seni tashlab ketyapman. Sezib turibman, endi diydor ko'rishishga ulgurmaymiz. Lekin sen bundan ranjima, men doim sen bilan birgaman. Senga onalik maslahatim, hech qachon umidsiz bo'lma, orzuga ishon. Seni taqdir jarga uloqtirsa, yig'lab diydiyo qilma yoxud peshonam shu ekan, deb taslim ham bo'lma. Yiqilsang, qayta turishga o'zingda kuch topa bilgin. Yana bir iltimos, agar dadangni uchratsang, undan mehringni darig' tutma!»

Marhumaning qirqi o'tkazilgach, Anora shahar tomon yo'l oldi. Shoshilganidan emas, bu yerda hamma narsa ayasini eslatardi. U taksidan tushishi bilan uyi oldida yasan-tusan qilib olgan juvonni ko'rdi. Juvon pildirab uning yoniga keldi. Salom-alikdan song maqsadini aytdi. Eri bilan ajrashmoqchi emish, sababini so'rasa, unga kam e'tibor bo'lib qolibdi, ishdan kech kelarmish. «Farzandingiz bormi?» deb so'radi Anora. «Ha, Gulya, uch yoshda, xohlarsa men bilan, xohlarsa anavi go'rso'xta bilan yashaydi», dedi juvon xotirjam. Keyin qo'shib qo'ydi: «Qiyinalib ketdim-ku bunday yashashdan, opajon».

Anora ayasi bilan bu juvonni taqqoslashga urindi, lekin tasavvuriga ham sig'ira olmadi. Ha, bu juvonda ayasida bor bo'lgan tog'dek sabr-bardoshdan asar ham yo'q edi...

MATONAT TIMSOLI

(USHBU ILK HIKOYAM ONAMGA BAG'ISHLANADI)



Mahliyo O'ROQOVA,
«Yosh kitobxon – 2018» respublika
tanlovi g'olibi, Samarqand viloyati,
Paxtachi tumanidagi 24-umumta'lim
maktabi o'quvchisi

deb echkidek dikongladi, — kampir mayin jilmayib, samimiy ohangda so'zida davom etdi:

— Shu desang, kecha pensiyam keluvdi, qari odam nimagayam ishlatardim, — dedi va bir dasta pulni unga uzatib, qo'shib qo'ydi: — Tortinma, bolam. Qizingga yangi kiyim-kechak olib ber, qolganini ro'zg'oringga ishlat.

Sanobar bu qo'shni ayolni o'z onasiday ko'rardi. Momo unga avvaldan yordam berib kelardi.

— Yo'q, momo, hozir ayni pishiqchilik vaqti, qishga ul-bul olmasangiz bo'lmaydi. Sizam yolg'iz bosh bilan qiyalyapsiz, qoying, kerakmas. Otasi kep qolar. O'zim bir amallayman.

Sanobar pulni olmagani uchun onaxon o'zini jahli chiqqanday ko'rsatib:

— Olaversang-chi, Sano, nima, Anora meni qizimmasmi, otasi kelguncha kutib o'tirasanmi qizingni shashtini qaytarib... Erkakning rizqi ko'chada deyishadi, Sobirboyam yurgandir-da ro'zg'or deb...

Sanobar: «Rahmat, momojon», dedi-yu, o'zini yig'idan zo'rg'a tiydi...

Oradan oylar, yillar o'tdi. Anora ulg'ayib boraverdi. Ayol qizini shaharda o'qitdi. Anora ham qiyinchilik ko'rgan qiz emasmi, shaharda

ZAVQLI TA'TIL!

Barchamizga ma'lumki, pandemiya sababli yurtimizda karantin e'lon qilindi hamda O'zbekistonning barcha hududlarida faoliyat olib borayotgan barcha ta'lim dargohlarida ta'lim jarayoni noma'lum muddatga to'xtatildi. Oradan hech fursat o'tmay online-maktab loyihasi tatbiq qilindi. Ya'ni, ta'lim muassasasida o'tiladigan darslar online tarzda televideni-yening bir qator kanallari orqali o'tib berildi va shu tariqa o'quv yili yakunlandi.

Hozirda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishlari uchun ta'lim dargohlari tomonidan onlayn-tanlovlar tashkil qilinmoqda. Birgina Sirdaryo viloyati timsolidi Yangiyer, Xovos, Shirin hamda Guliston shahar va tumanlarida ushbu faoliyat ommalashgan. Jumladan, Guliston shahrida joylashgan 5-umumta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Murodjon Yusupov tashabbusi bilan bir qator maktabning faol o'qituvchilari hamkorligida telegram messengeri orqali «Online-maktab5» kanali faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ayni paytda ushbu kanal

yigirmadan ortiq tanlovlar e'lon qildi. Jumladan, «Men sevgan mult qahramon», «Eng yaxshi rassom»,

«Quvonchli kun», «Eng yaxshi milliy raqs», «Mening qahramonim», «Eng yaxshi iste'dod egasi»,

«Oila davrasida», «Sportchi bolajon», «Ustozimga tabrik», «Yoshlar zavqi», «Men jurnalistman», «Mening bir kunim», «Men vaqtimni qanday o'tkazmoqdaman?» kabi bir qator tanlovlar tashkil qilindi. Tanlovlarda faol ishtirok etayotgan yoshlar maktab ma'muriyati tomonidan diplom va sertifikatlar bilan rag'batlantirilmog'da.

– Ushbu loyihani amalga oshirishimdan maqsad o'quvchilarning ta'til kunlarini maroqli, mazmunli o'tishiga hissa qo'shishdan iboratdir. Quvonarli tomoni shundaki, kanalimizda nafaqat viloyatimiz, balki Respublika miqyosida kuzatuvchilarimiz mavjud.

Kelgusida faoliyatimizni yanada kuchaytirib, kuzatuvchilar sonini emas, balki salmog'ini oshirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz va bunga albatta, erishamiz, – dedi «Online-maktab5» loyihasi asoschisi Murodjon Yusupov.

Darhaqiqat, shu singari loyihalar o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish barobarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini oshirish uchun ham xizmat qilmoqda.

Nigora ORIFJONOVA,
Sirdaryo viloyati,
Guliston shahridagi
5-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!


«I-I» TOPQIRLIK MASHQLARI

Eniga: 1. Xitoy va Qozog'istondan oqib o'tuvchi daryo. 2. Bolqon yarim orolining g'arbiy qirg'og'i yaqinida, Gretsiya yaqinidagi orollar. 3. Marokashning Atlantika okeani sohilidagi hududi. 4. Mehnat bilan shug'ullanuvchi, moddiy boylik yaratuvchi shaxs. 5. Seldsimonlar oilasiga mansub baliq turi. 6. Kash-tado'zlikda chok turi. 7. Lochinsimonlar oilasiga mansub ov qushi. 8. Himolay tog'larining sharqiy tarmoqlaridan boshlanib Myanma hududidan oqib

o'tuvchi eng katta daryo. 9. Molguzar va Nurota tog'lari oralig'ida, Jizzax viloyatining Sangzor daryosining tor vodiysidagi tog' yo'lagi.

Topshiriq: Shaklning o'ninchi qatoridagi raqamlar juftini (birinchisi so'z, ikkinchisi harfni anglatadi) yuqoridagi javoblardagi harflar bilan almashtirish bilan topshiriqni hal eting. Bunda xo'jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy sohasi mutaxassisini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon O'RIPOV



Aziz o'quvchilar!
Navbatdagi «Matbuot»
boshqotirmasi javoblarini
birinchilardan bo'lib
topib, gazeta elektron
pochtasiga yuborgan
o'quvchi Ruxshona
ILASHOVA bo'ldi.
U poytaxtimizning
Mirobod tumanidagi
31-umumta'lim
maktabida o'qiydi.
Biz Ruxshonani
tabriklaymiz.

Qadim o'tgan zamonda, Orol bo'yi tomonida odil va haqiqatparvar Kayamars bo'lgan ekan. U odamlarga faqat yaxshilik, ezgulik ulashar ekan. Odamlar tabiat hodisalari oldida ojiz bo'lganligi uchun Kayamars odamlarga yordam berib, qurg'oqchilik bo'lib, dehqonchiligi yaxshi bo'lmasa, don-dun, hayvonlarga

podshoh qildi. Xubbi xalqining farovon hayoti uchun suv zarurligini anglab yetgach, Orol dengizini qo'riqlabdi. Biron-bir yomon ruh, hattoki chivin ham dengizga yaqin yo'lashga botina olmabdi. Orol dengizining suvi avvalgidan ham tiniq bo'libdi. Orol bo'yi xalqi esa tinch, osoyishta, baliqchilik bilan shug'ullanib, farovon hayot kechira boshlabdi. Lekin vaqt o'tishi bilan Xubbi g'oyib bo'libdi. Odamlar hayron bo'lib rosa qidirishibdi, ammo uni hech qayerdan topisha olmabdi. Quyosh xudosi bo'lgan Mitraning qizi Xubbini o'g'irlab ketgan ekan. Odamlar shundan beri Xubbini kishilarni halokatdan qutqaruvchi suv xudosi deyishibdi. Xubbi g'oyib bo'lgandan keyin uning onasi o'g'li o'miga kelibdi. U qayiq yasabdi. Dengizga qayiqlari suzib,

dengizni qo'riqlabdi. Biroq kunlarning birida Xubbinning onasi o'z-o'zidan g'oyib bo'libdi. Xalq dengizni qo'riqlagan ona-bolaning ishini davom ettira boshlabdi. Juda ko'p qayiqlar yasab, ularda Xubbinning onasi qiyofasini aks ettiribdilar. Shu-shu oldi tomonida ona timsoli tushirilgan katta kemalar dengizda xalq ehtiyojiga xizmat qilarkan. Odamlar baliqchilik bilan shug'ullanib, baliqlarni chet mamlakatlarga sota boshlabdi. Vaqtlar o'tishi bilan Orol dengizidagi baliqlar kamayib qolibdi. Bundan jahli chiqqan suv ma'budasi




Anaxita odamlardan xafa bo'lib yig'labdi. Kun sayin Orol dengizining suvi sho'rланib, kamaya boshlabdi. Kemalarning dengiz chetida suvdan uzoqda qolib ketishiga achinibdi. U hamon xalqdan madad kutib, Orol dengizi to'lishini, avvalgidek baliqlar ko'payishiga umid qilib yashar ekan.

Dengiz chetida qolgan kemalar hamon suvga intiq bo'lib, baliqlar esa Orol bag'ri to'lishini kutib yashashar ekan.

Nilufar NARBAYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy
tumanidagi 51-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

OROLNI QO'MSAGAN KEMALAR

(Ertak)



yem-xashak berar ekan. Kuch-qudratda tengi yo'q Kayamars yurtga yov bostirib kelsa, haydab chiqararkan. U xalq og'zida ezgulik timsoli sifatida ulug'lanar ekan. Kunlardan bir kun Kayamarsni ko'rolmagan yovuz Axriman uni hiyla-nayrang bilan o'ldiradi. Uning o'limi ham odamlarga yaxshi yashashi uchun xizmat qiladi. Jasadining qismlaridan 55 xil don, 12 xil o'simlik, baliq, sigir va ho'kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo'libdi. Xubbi Axrimanni jangga chaqirib, uni jangda yengdi. Xalq Kayamarsning o'miga Xubbini

«Tog' havosi»

Iroda HAYDAROVA,
Toshkent viloyati,
Bekobod shahridagi
16-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



BAQLAJONLI SALAT



Kerakli masalliqalar:

200 gr mol go'shti, yarim kilo fentoza, 1 ta baqlajon, 2-3 bo'lak sarimsoqpiyoz, 3 dona pomidor, 2 dona (kichikroq) piyoz, 2 dona bulg'or qalampiri.

Tayyorlanishi:

fentoza issiq suvda 1 soat ivitiladi. Go'sht mayda to'g'ralib, past olovda qovuriladi. Ustidan to'g'ralgan piyoz, somoncha shaklda to'g'ralgan baqlajon va bulg'or qalampirini ham solib, yengil qovuriladi. So'ng, olovdan olib fentoza, sarimsoqpiyoz, tuz, murch solib aralashtiriladi va pomidor bilan bezak beriladi.



NARGIZA tayyorladi



**Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan
g'alabani 75 yilligiga bag'ishlangan**

«URUSH, NOMING O'CHSIN JAHONDA...»

**nomli yangi kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
«Ijod» jamoat fondi tomonidan nashr etildi. 560
betlik kitobdan joy olgan she'rlarda urushning
xalqimiz boshiga keltirgan behisob talofatlari o'z
aksini topgan.**

Davlatimiz rahbari urush yillarida xalqimiz ko'rsatgan betimsol matonat haqida shunday degandi:

«Bizning mard, yengilmas va oliyjanob xalqimiz Buyuk G'alabani ta'minlashga beqiyos hissa qo'shgani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Bu qonli urushda jami 1,5 milliondan ziyod O'zbekiston farzandlari tinchlik va ozodlik uchun mardona jang qilgani, ularning har uch nafaridan biri o'z yaqinlari bag'riga qaytmagani, el-yurtimizning front ortda ko'rsatgan jasoratini xalqimiz hech qachon unutmaydi».

Bobolarimizning achchiq o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan jonli xotiralar o'quvchini hech qachon befarq qoldirmaydi.



AXTAMQULI



YELKANLI OPERA TEATR

Har bir davlatning o'z tarixiy merosi va madaniyati-yu inshootlari bo'lganidek, Avstraliyaning Sidney opera teatri ham antiqa ko'rinishi bilan ulkan kemani eslatadigan inshoot hisoblanadi. Bu teatr Avstraliyaning Sidney shahrida 1959-yilda qurilishi boshlanib, qariyb 4 yilda nihoyalangan.

Sidney opera teatri ichida o'nlab zallar mavjud bo'lib, turli madaniy tadbirlar va konsert dasturlari namoyish etilgan. Konsert zalining sig'imi 2,5 ming o'rinni, opera zali esa 1,5 drama teatri uchun 500 ta o'rinni mavjud.

Shuningdek, katta sig'imli teatrdagi ochiq osmon ostidagi zal ham faoliyat yuritadi. Ushbu opera teatri dunyoning noyob arxitekturalaridan sanaladi. Uning tom qismi yelkanlar shaklida qurilgan bo'lib, dunyoning boshqa binolaridan mana shu qismi bilan ajralib turadi. Sidney opera teatri Avstraliyaning faxriga aylangan.

Internet manbalari asosida
ZUHRA tayyorladi

BILASIZMI?... BU QIZIQ!

1. Eng katta qiymatga ega bo'lgan raqam - $2^{82\,589\,933}$ hisoblanadi. Va u Patrik Laroche tomonidan 2018-yil 7-dekabrda GIMPS loyihasi doirasida kashf etilgan va 24 862 048 o'nlik raqamlardan iborat. Aytganча, Leonard Eyler 1772-yilda o'sha davrdagi eng katta raqamni - 2,147,483,647 ni topdi, qiziq tomoni shundaki, o'sha davrlarda kompyuter va kalkulyatorlar yo'q edi.

Hozirgi kunga kelib, ko'plab matematik olimlar va matematik ishqibozlar tomonidan rekord darajadagi tub sonlar qidirilmoqda, chunki Electronic Frontier Foundation jam'armasi eng katta raqamni topganlarga katta miqdorda mukofot beriladi. Misol uchun, 2009-yilda jam'arma tomonidan 10 000 raqamdan kam bo'lmagan o'nlik raqamlardan iborat bosh sonni topgan olim uchun 100 000 AQSH dollari miqdoridagi mukofot taqdim etildi. Shunday qilib, har kunda karantin davrida yaxshigina mukofot yutib olish imkoniyati mavjud, faqat buning uchun sizdan matematik hisob-kitoblar va bilim talab etiladi.

2. Hasharotlar 400 million yil oldin yerda paydo bo'lgan birinchi tirik mavjudotlardir. O'shandan buyon ular beshta yirik ofatdan omon qolishgan va tiranozavrlarga qaraganda bardoshli ekanliklarini isbotlashgan.



4. 4.04, 6.06, 8.08, 10.10 va 12.12 kunlari bir yil davomida haftaning o'sha kunida joylashgan.

5. Titanik SOS signalidan foydalangan birinchi kema bo'lgan.

3. Nil Armstrong Oyga birinchi qadam qo'ygan kuni bir kamtar britaniyalik butun insoniyat bilan birga quvondi. Uning ismi Devid Trelfall edi va u boshqalarga qaraganda ajablanarli darajada omadli edi. 1960-yilda u cho'ntagida 10 funt bilan, o'sha davr uchun aql bovar qilmas voqeaga pul tikish g'oyasi bilan bukmeýkerga keldi. Taklif etilgan ro'yxatidan u keyingi 10 yil ichida odamning

Oyga bo'lgan sayohati uchun o'z pulini tikdi.

O'sha paytda o'n funt unchalik katta bo'lmagan: ishchining oylik maoshi 30-40 funt edi. Shunga qaramay, Devid g'alaba qozondi. 1969-yilda bukmeýkerga tikish davri tugashiga bir yilcha vaqt qolganda, amerikaliklar Oyga qo'nishdi. Va Trelfall bu pullarga sport mashinasini sotib oldi.



SHERALI tayyorladi

BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Dilshod KENJAYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV,
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV

Rassom
Feruza KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul. Manzilimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198. www.tongyulduzi.uz e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz telegram: t.me/tongyulduz Adali - 2232 Buyurtma - V 4223

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Shakli A-3, 2 bosma taboq. Bahosi kelishilgan narxda. Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi. Topshirish vaqti - 18:00 Topshirildi - 18:00 Tel./faks: (99871) 244-63-08